

**Gustav Floberning “Bovari xonim” asarida Emma obrazi talqini****Keldiyeva Muxlisa Otabek qizi****Abduraxmonova Rushana Anvar qizi**

CHDPU O’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Arzikulova Sohiba Abdujabborovna**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Gustav Floberning qalamiga mansub "Bovari xonim" asari va uning obrazlar tizimi, asarning realizmga qo'shgan hissasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Realizm, Gyustav Flober, Emma, romantika, ilohiylashtirish.

Jahon adabiyotining nodir durdonalaridan biri "Bovari xonim" realistik romani Fransuz yozuvchisi Gustav Flober qalamiga mansub bo'lib, asar yozuvchi ijodiga katta shuhrat olib kelgan. Yozuvchi bu asar orqali romantizm rivojlanyotgan davrda endi paydo bo'lgan realizmni yuksaltirdi. Asar syujeti Emma Bovari atrofida aylanadi va baxtini izlayotgan, kitoblarda o'qigan “qahramon”ni qidirgan ayolning zerikarli taqdiri ochib berilgan.

Asarda hayotga unchalik qiziqmagan, o'z qobig'iga o'ralib, o'z dunyosi bilan yashaydigan tabiatdan biroz zerikarli bo'lgan Sharl Bovariyning xotini Emmaning kitoblarda o'qigan mukammal baxtga intilish yo'lida qilgan xatolari va o'ziga va atrofida qilargalarga olib kelgan fojeali ishlari ochib beriladi. Emmaning bu hayotda izlagan baxti unga juda katta baxtsizlik olib keldi. Har bir kitobxon asarga nisbatan har xil munosabat bildiradi. Ba'zilar Emmaning tutgan yo'lini qoralasalar, ba'zilar bularning bariga uning eri aybdor deyishi mumkin. Asar mana shu jihatidan ham o'sha yillar saviyasini saqlab kelmoqda. To'g'ri ko'p jihatdan Bovari xonimning juda oshib ketgan hashamatga, boylikka berilishi, tinch hayotidan nolishi va baxtni o'qigan kitoblaridek deb o'ylab bor



baxtdan ham kamchiliklar topishini qoralamasdan iloj yo'q. Ota bobolarimiz aytganlaridek, “Oldingdan oqqan suvni qadri yuq”. Ammo tarozining ikkinchi pallasini ham bor deganlaridek, asarning kitobxon uchun ijobiy jihatlari ham bor. Qanday deysizmi? Luqmoni Hakim aytganidek, “Odobni odobsizdan o'rgan”- ya'ni har bir inson Emmaning qilgan ishlarini ko'rib unga nisbatan nafrat uyg'onadi, ayniqsa, o'zbek millatida ayol sha'ni, or-nomusi eng muhim bo'lgan bir paytda asar syujeti kitobxonni taajubga solishi mumkin. Lekin aqlan idrok etgan insongina bu hayotga doim real ko'z bilan qarash kerakligini, chiroyli bo'lib ko'ringan hech bir narsa aslida unaqa bo'lmasligi mumkinligini, inson o'z baxtini o'zi yaratishi kerakligini tushunib yetadi. Asar bugungi kungacha o'zining realizm adabiyotida turgan o'rnini saqlab kelmoqda. Flober nega aynan realizmni tanladi? Flober yashagan davrda asarlarda romantizm ulug'lanardi (Emma o'qigan mashhur kitoblar romantizm davriga tegishli adabiyotlar edi). Ammo hissiyotlarning ko'kka ko'tarilishi va ularni barcha narsadan ustun qo'yilishi real hayotda fojiga olib kelishi hech gap emas. Insoniy hislar tafakkurdan yoki bilim hissiyotdan ustun qo'yilmasligi lozim. Ikkala holda ham inson hayoti ziddiyatlarga to'ladi. Flober mana shu ziddiyatlarni ochib berdi. Go'zallik, muhabbat, ishq - bularning barchasi go'zal, ammo ularning ortida turgan xatarni e'tiborsiz qoldirish aslo mumkin emas.

Sevgini ilohiylashtirish undan yuz o'girishga sabab bo'lishi mumkin. Emma qalbida sevgiga oid hislar mavjud edi, ammo ular abadiy emasdi. Bir necha marta muhabbat dardiga yo'liqqan Emmaning oxir taqdiri o'z joniga suiqasd bilan yakunlandi. Ammo u sevgini oddiy qabul qilganida, o'z hislariga tamomila erkinlik berib, mukammal baxtni his qilishga urinmaganida, mukammal baxtsizlikka yo'liqmagan bo'lardi. Flober o'zining maktublarining birida aytadi: «Emma o'qigan romantik kitoblar bo'lmaganida, uning taqdiri bu qadar achinarli holga kelmagan bo'lardi». Demak, Emmaning taqdiri u muhabbatni barcha narsadan ustun qo'yganida xayolotga berilib, reallikdan bexabar qolgan edi. Uning muhabbati biron marta oxirigacha yetib bormadi sababi jamiyat xasta edi. Xasta jamiyatda ham munosabatlar illatlarga, yolg'onlarga to'la bo'ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, asar baxtli yakun topishi mumkin edi, qachonki Emma erini zerikarli odam deb emas balki erini ham o'qigan kitoblaridagi qahramonlaridek



tasavvur qilganida edi, hayoti zavqqa to’la bo’lgan bo’lar edi. Chunki usti go’zal bezatilgan har narsaning ichi ham go’zal bo’lavermaydi. Besh kunlik hayotingizni boshqalarga taqlid qilib emas, o’z hayotimizni o’z fikrlarimizga, qarashlarimizga tayangan holda qurish afzalroq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xurshid Davron kutubxonasi ijodiy sayt
2. Gustav Flober “Bovari xonim”
3. U. Hamdamov, A. Qosimov “Jahon adabiyoti” Toshkent 2017.y